

**RIVOJLANAYOTGAN O‘ZBEKISTONNING EKSPORT SALOHIYATINI
OSHIRISHDA IQTISODIY KO‘RSATKICHLARNING AHAMIYATI**

Sabirov Xasan Nusratovich,

Xalqaro Nordik universiteti doktoranti

ORCID:0000-0002-9632-4311

e-mail: k.sabirov@nordicuniversity.org

ANOTATSIYA

Mazkur maqolada hozirgi rivojlanayotgan davr iqtisodiyotida dolzarb bo‘lgan eksport rivoji haqida so‘z boradi. Bunda muvaffaqiyatli eksport strategiyalaru haqida keltirib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda, prezidentimizning ham eksport sohasiga bo‘lgan e‘tiborlari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Eksport rivojlanishida iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ahamiyatini o‘rganishda ekonometrik modellashtirish usulidan foydalanilgan. Bunda korrelyatsion-regression tahlildan foydalanilgan. Ushbu tahlilda Stata14 dasturidan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida prognoz qiymatlarni olishda AR modellaridan foydalandik. Tadqiqot natijalariga asosan O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda import hajmini oshirish kerakligi hamda boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar ham ahamiyatligi o‘rganilib chiqildi.

Kalit so‘zlar: eksport, iqtisodiyot, import, eksport hajmi, tahlil, ekonometrik model, iqtisodiy tarmoqlar, xizmatlar, AR model, prognozlash, korelyatsion-regression tahlil.

KIRISH

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida bo‘layotgan o‘zgarishlar, globallashuv va integratsiyalashish jarayonlarining tezlashishi, xalqaro raqobatning kuchayishi, texnologiyalardagi uzluksiz va muhim sifat o‘zgarishlarining yuz berishi, sotish bozorlari va iste‘molchilar talablarining tarkibiy o‘zgarishlari har bir xo‘jalik yurituvchi subyektdan raqobatbardosh mahsulot yaratish, ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlarni keskin kamaytirish hamda boshqaruvda bozor talablarini hisobga olgan holda optimal qaror qabul qilishni talab qilmoqda.

So‘nggi yillarda globallashuvni qabul qilgan davlatlar o‘z iqtisodiyoti uchun savdoning ahamiyati katta ekanini ko‘rmoqdalar. Bu esa o‘z o‘rnida eksport va import masalalariga borib taqaladi. Kompaniyalar ko‘pincha o‘z mahsulotlarini arzonroq yoki ichki bozorda mavjud bo‘lmagan tovarlarni olib kirish maqsadida importdan, bozor sotish hajmini va o‘z navbatida foydani ko‘paytirish imkoniyatlarini yartishda eksportdan foydalanishadi.

Shu nuqtai nazardan eksport haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Eksport (ing, lot. — olib

chiqaman, chetga chiqaraman) — tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish. Tovarlarini bir mamlakat orqali olib o'tish (tranzit) va bir mamlakatdan olib kelingan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish uchun chiqarish (reeksport) ham eksportga kiradi.

Bugungi kunda butun jahon tovarlari eksporti 14 trillion dollardan, xizmatlar eksporti esa 4 trillion dollardan oshadi. Shu bilan bir qatorda kim bilan ekport import aloqalari o'rnatish kerakligi ham katta ahamiyatga ega. Xalqlar o'rtasida Tovar savdosining doimiy shakli mavjud. Dunyoning yuqori daromadli iqtisodiyotiga ega davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalari qariyb 60 %, yuqori va o'rta daromadli davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalari qariyb 34% ni va o'rta hamda past daromadli davlatlar o'rtasidagi tavor savdosi jahon savdosining atigi 6% qismini tashkil qiladi¹.

Jahon iqtisodiyotida kompaniyalar tovar va xizmatlarni chakana sotuvchilarga, ulgurji sotuvchilarga, sanoat xaridorlariga hamda boshqa mamlakatdagi sotuvchilarga sotadilar. Asosan, kompaniyalar eksport qilishni boshlashni uchta asosiy sababi bor. Birinchidan, ko'plab yirik kompaniyalar ichki bozor to'yinganida sotishning umumiy hajmini kengaytirish maqsadida eksportdan foydalanadilar. Ikkinchidan, eksport kompaniyalarga sotishni diverfikatsiya qilishga imkon beradi. Uchinchidan, kompaniyalar xalqaro biznes tajribasini olish uchun eksportni arzon va xavfli usul sifatida foydalanishi mumkin.

Kompaniyalar mantiqiy yondashuvga e'tibor qaratishi lozim. Mantiqiy yondashuv xalqaro imkoniyatlarni tadqiq qilish va tahlil qilish va izchil eksport strategiyasini ishlab chiqish demakdir. Muvaffaqiyatli eksport strategiyasini ishlab chiqishning to'rt bosqichi mavjud.

1. Muayyan maqsadli bozorda talab mavjudligini aniqlash.
2. Qobiliyatlar va ehtiyojni taqqoslash.
3. Mahalliy distribyutorlar, xaridorlar va boshqalar bilan uchrashuv o'tkazishni boshlash.
4. Barcha uchrashuvlar, muzokaralar va shartnomalar imzolanganidan so'ng, resurslarni ishga solish, ya'ni kompaniyaning insoniy, moliyaviy va jismoniy resurslarini ishga solish².

O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirish uchun ham turli xil chora-tadbirlab amalga oshirilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son [Farmoni](#) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi "ochiq muloqoti"da "2022-yil 1-noyabrdan boshlab bir eksport shartnomasi doirasida kelib tushmagan valyuta summasi eksportga yuklangan jami mahsulot narxining 5 foizidan oshmagan taqdirda muddati o'tgan debitor qarzdorlik hisoblanmaydi va tadbirkorlik subyektiga nisbatan

¹ A.A. Yusupov/Xalqaro biznes O'quv qo'llanma-T'ilm-fan va innovatsiya",2022

² A.A. Yusupov/Xalqaro biznes O'quv qo'llanma-T'ilm-fan va innovatsiya",2022

jarima qo'llanilmaydi, shuningdek, eksport qiluvchi tashkilotlarga foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish ko'rinishidagi imtiyozlar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan tushgan umumiy tushumdagi eksport hajmining ulushidan qat'i nazar qo'llanilishi"³ to'g'risida bir qator vazifalar belgilab olindi. Buning natijasida eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsad qilib olindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bilishimiz mumkinki, har bir davlat rivojlanishida muhim ro'l o'ynaydigan eksport salohiyatining ortishi va importdir. O'zbekistonda eksport uchun transport imkoniyatlari mavjud(suv(daryo), havo, quvur, quruqlik (avtomobil, temir yo'l). Shu bilan birga boshqa davlatlarda ham eksport salohiyati rivoji uchun katta e'tibor beriladi va shu kunga qadar ekport haqida yetarlicha izlanishlar olib borilgan.

Xususan, A.F. Yakupov, Ch.I. Khazeeva, D.D. Kurmakaeva, A.R. Galievalar o'z izlanishlarida Rossiya va Turkiya o'rtasidagi savdo aloqalari haqida to'xtalib o'tkanlar. Ular o'z fikrlarida eksportda ekport qiluvchi va import qilayotgan mamlakat o'rtasidagi masofa ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tkanlar. So'nggi o'n yillikda Rossiya "Sharqqa burilish" strategiyasini amalga oshirmoqda degan xulosalarni keltirib o'tishgan⁴.

Rassiya g'alla ekporti haqida Ivan Alekseevich Minakov o'z izlanishlarida to'xtalib o'tkan. Ekport salohiyatini oshirish uchun 2016-2020 yillar uchun g'alla va dukkakli ekinlar maydoni 800 ming gektarga yoki 1,7 foizga oshgaligi haqida to'xtalgan⁵.

Shuningdek, Gh. Ghasemi, H. Rafiee, E. Mehrparvar Hosseini o'z izlanishida eksport uchun maqsadli bozorlar tanlay bilish haqida to'xtalgan⁶.

S.A. Yuldasheva o'z ilmiy maqolasida O'zbekiston eksportining 2021-yilda oldingi yilga nisbatan 10% ga oshganligi haqida ta'kidlab o'tkan. Ya'ni "2021-yilda O'zbekiston eksportining

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2022 yildagi PF-228-son.

⁴ A.F. Yakupov, Ch.I. Khazeeva, D.D. Kurmakaeva, A.R. Galieva/ Transformation of the domestic trade between russia and turkey in the 21st century: dynamics, directions of the commodity turnover/ Глобальная экономика и образование. – 2022. – Т. 2. – № 3. – С. 73–79/ Economic Sciences

⁵ Иван Алексеевич Минаков/Экспорт как фактор развития зернового хозяйства/ Том 5 № 3 (2022)/ Экономические науки

⁶ Gh. Ghasemi, H. Rafiee , E. Mehrparvar Hosseini. Iran's Export Competitiveness in the Supply Chain of Tomato Paste in the Target Markets./ Available Online:19-03-2022 /Journal of Agricultural Economics & Development 35(4):397-406/ DOI: 10.22067/JEAD.2021.71505.1065

ulushi 16,6 milliard dollarni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 10 foizga oshganidan dalolat beradi.”⁷.

Ochilova Sadoqat Odil qizi hamda Rashidov Firdavs Ro'ziboy o'g'li o'z izlanishida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirishda bojxona ittifoqi muhim ahamiyat kasb etishi haqida to'xtalib o'tkan. Hamda “Mahalliy tadbirkorlarni eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalarini hal qilish maqsadida, ko'pchilik tashkilotlar jalb qilingan. Ular orasida «O'zstandart»agentligi muhim o'ringa ega. «O'zstandart»agentligi, bugungi kun aktual vazifasidan bo'lgan standartlashtirish, mahsulot va xizmatni sertifikatlashtirish, ularni xalqaro talablarga muvofiqlashtirish, mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilinishidagi to'siqlarni bartaraf qilish kabi masalalarda yordam ko'rsatadi. Shuni aytish joizki, bojxona ittifoqining barcha me'yoriy hujjatlari jahon savdo tashkiloti me'yoriy hujjatlariga to'liq muvofiqlashtirilgan. Mahsulotlarni bojxona ittifoqi mamlakatlariga eksport qilinganligi aniq dalillar bilan tasdiqlanganda ya'ni, bojxona hodimlariga mahsulotni eksport qilayotganligini tasdiqlovchi xujjat shartnoma taqdim etilganida eksport qiluvchi korxonalar qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) va aksiz to'lovidan ozod qilinadi.”degan fikrlarni ilgari surgan⁸.

Nishonova Ikboloy Ibroximovna “Bugungi kunda eksport-import operatsiyalari bilan shug'ullanadigan tashkilotlar yirik soliq to'lovchilar bo'lib, mamlakat byudjetini sezilarli darajada to'ldirishni ta'minlaydi” deya o'z fikrini keltirib o'tkan⁹

So'ngi yillardagi izlanishlarga yuzlanadigan bo'lsak, Fakhri J. Hasanov, Muhammad Javid, Frederick L. Joutzlar Saudiya Arabistonining neftdan tashqari eksporti COVID-19dan oldin va keyin: aniqlovchilarning tarixiy ta'siri va stsenariy tahlili mavzusida olib borgan izlanishlarida o'z fikrlarini keltirib o'tishgan. Tadqiqotning maqsadi Saudiya Arabistonining noneft eksporti uchun ekonometrik modellashtirish tizimini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, u empirik taxminlar va simulyatsiyalar orqali siyosatni ishlab chiqish jarayonini xabardor qilishni yaxshilash. Bundan tashqari, ularning topilmalari eksportga asoslangan o'sish kontseptsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Ular ekonometrik baholar va siyosat simulyatsiyasi tahlillaridan olingan ba'zi siyosat tushunchalarini qisqacha muhokamasida. Siyosatlarni amalga oshirishda rasmiylar

⁷ Saodat A. Yuldasheva. Analysis Of The State Of The Market For Export-Oriented Products Transported By Rail In The Republic Of Uzbekistan./ Vol. 6 No. 7 (2022) / Journal of Positive School Psychology

⁸ Ochilova Sadoqat Odil qizi, Rashidov Firdavs Ro'ziboy o'g'li. Bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlarga meva va sabzavot eksport qilishda, bojxona ittifoqi (eaes) ning huquqiy va me'yoriy talablarini aniqlash/ Vol. 1 No. 5 (2022): Educational Research in Universal Sciences (ERUS)

⁹ Nishonova Ikboloy Ibroximovna. Korxonalarda eksport-import operatsiyalarini hisobini takomillashtirish masallalari/Vol. 1 No. 2 (2022): SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI

noneft eksporti real valyuta kursining o'zgarishiga (ya'ni, o'sish va qadrsizlanish) juda sezgir ekanligini hisobga olishlari mumkin ekanligi haqida fikrlarinibildirib o'tdilar¹⁰.

Erkin savdo hududlari va umumiy valyutaning Afrikadagi barqaror qishloq xo'jaligi eksportiga potentsial ta'siri haqida Richardson K. Edeme, Chigozie Nelson Nkaku va Chinenye E. Iloka tadqiqotchilar o'z izlanishlarini olib bordilar. Tadqiqot Afrikaning 45 mamlakatidan 1996 yildan 2018 yilgacha bo'lgan ma'lumotlarga asoslanib, erkin savdo hududlari va umumiy valyutaning qishloq xo'jaligi eksportini rivojlantirishdagi potentsial ta'sirini o'rganadi. Ularning empirik hisob-kitoblari erkin savdo hududlariga a'zolik qishloq xo'jaligi eksportiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa ham, AMU(Arab Migreb a'zosi), CS-SS(Sahel-Saxara davlatlari hamjamiyati), COMESA(Sharqiy va Janubiy Afrika uchun umumiy bozor), EAC(Sharqiy Afrika hamjamiyati), ECCAS(Markaziy Afrika davlatlarining iqtisodiy hamjamiyati)ga qo'shilish, ECOWAS (G'arbiy Afrika davlatlarining iqtisodiy hamjamiyati), IGAD (Rivojlanish bo'yicha hukumatlararo organ) yoki SADC(Janubiy Afrika taraqqiyot hamjamiyati)ning bir qismi qishloq xo'jaligi eksportiga darhol ta'sir qilmaydi degan xulosaga olib keldi¹¹.

Khojalepesov Polat Zinatdinovich, Sarsenbaev Ilhambay Eliwbay Ulı, Madetova Nilufar Maxkamjan Qizi izlanishlari mobaynida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning eksport natijasida erishayotgan yutuqlari haqida hamda tadbirkorlarga o'z mahsulotlarini xorijiy davlatlarga eksport qilish uchun berilayotgan imkoniyatlar, eksport sohasi rivoji natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti yuksalishi suratlari ko'rsatilib, erishilgan natijalar haqida keltirib o'tilgan¹²

METODOLOGIYA

Mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda iqtisodiy ko'rsatkichlarning ahamiyatini o'rganishda biz ekonometrik modellahtirish usuliga to'xtaldik hamda korrelyatsion-regression tahlildan foydalandik. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda jamiyatdagi va iqtisodiyotdagi obyektlarni matematik modellar orqali tahlil qilish zarurati tug' ilmoqda. Bu esa o'z navbatida ekonometrik modellashtirishga borib taqaladi.

¹⁰ [Fakhri J. Hasanov, Muhammad Javid, Frederick L. Joutz/Saudi Non-Oil Exports before and after COVID-19: Historical Impacts of Determinants and Scenario Analysis/Sustainability 2022, 14\(4\), 2379](#)

¹¹ [Richardson K. Edeme, Chigozie Nelson Nkaku, Chinenye E. Iloka/Potential impacts of free trade areas and common currency on sustainable agricultural export in Africa/Journal of Public Affairs/First published: 29 August 2020/https://doi.org/10.1002/pa.2392](#)

¹² Khojalepesov Polat Zinatdinovich, Sarsenbaev Ilhambay Eliwbay Ulı, & Madetova Nilufar Maxkamjan Qizi. (2023). ACHIEVED RESULTS OF BUSINESSES IN UZBEKISTAN IN EXPORTING THEIR PRODUCTS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(01), 33–37. <https://doi.org/10.55640/eijmrrms-03-01-05>

Model o'z navbatida lotincha so'z bo'lib, modulus ya'ni o'lchov, me'yor degan ma'nolarni anglatadi. Shu bilan birga iqtisodiy modelga iqtisodiy obyektlarning soddalashtirilgan nusxasi sifatida qarashimiz mumkin. Bunda modelning hayotiyliigi, uning modellashtiriladigan obyektga aynan mos kelishi muhim ahamiyatga egadir. Lekin yagona modelda o'rganilayotgan obyektning hamma tomonini ham aks ettirish mumkin emas. Bunda jarayonning eng xarakterli va muhim belgilari aks ettiriladi.

Bundan kelib chiqadiki, modelning haqiqiyliigi to'plangan ma'lumotlar hajmiga, tadqiqotchining malakasiga, to'plangan ma'lumotlar aniqlik darajasiga, modellashtirish jarayoniga va aniqlanadigan masalaning xarakteriga bog'liq. Shuni takidlash joizki, juda soddalashtirilgan model qo'yilgan talablarga to'la javob bermaydi va aksincha, murakkab model esa uni yechish jarayoniga qiyinchiliklar tug'diradi.

Tadqiqotda ekanometrik modellashtirishni bir necha qadamlar orqali o'rganilayotgan obyektimizni tahlil qilib chiqamiz.

Birinchi qadam – spetsifikatsiyalash jarayoni. Iqtisodiy muammoni qo'yilishi ya'ni asosiy omillar guruhi tanlanib, iqtisodiy muammo to'planadi va asosiy omil hamda ta'sir etuvchi omillar guruhi belgilanadi. Ekonometrik modelda qatnashadigan omillar korrelatsion tahlil usuli yordamida aniqlanadi.

Korrelyatsiya koeffitsienti formulasi¹³:

$$r_{x/y} = \frac{\bar{x} \cdot \bar{y} - \bar{\bar{x}} \cdot \bar{\bar{y}}}{\sigma_x \cdot \sigma_y}$$

Bunda r ya'ni korrelyatsiya koeffitsienti -1 va 1 oralig'ida bo'ladi. $0 \leq r \leq 1$ ekanligi kuzatilsa to'g'ri bog'lanish mavjud deyishimiz mumkin va $-1 \leq r \leq 0$ bo'lsa teskari bog'lanish mavjud deya olamiz. Agar $r=0$ bo'lsa, omillar o'rtasida bog'lanish mavjud emas, shu bilan birga $r = 1$ bo'lsa funktsional bog'lanish mavjud.

Ko'plikdagi korrelyatsiya koeffitsienti formulasi:

$$R_{y/x_j} = \sqrt{1 - \frac{\sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y})^2}{\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2}}$$

Ikkinchi qadam – identifikatsiya qilish bosqichi. Bunda “Eng kichik kvadratlar” usuli yordamida tuziladigan ekonometrik modelning parametrlari aniqlanadi. Normal tenglamalar sistemasidan foydalanib, “Eng kichik kvadratlar usuli” ni bajaramiz:

$$\begin{cases} a_0 \cdot n + a_1 \cdot \sum x = \sum y \\ a_0 \cdot \sum x + a_1 \cdot \sum x^2 = \sum y \cdot x \end{cases}$$

¹³ Sabirov, H. N., Abduvaliyeva, Z., & Kh, T. (2022). ECONOMETRIC MODELING OF BUSINESS PROCESSES BASED ON TIME SERIES DATA. Экономика и социум, (7 (98)), 102-110.

Ekonometrik model tanlangan omilar asosida chiziqli yoki chiziqsiz ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Regressiya tenglamasini tuzish (a_0, a_1, \dots, a_n regressiya tengamasining koeffitsientlari) eng kichik kvadratlar usuli yordamida hisoblash hamda aniqlanadi.

Uchinchi qadam – verifikatsiyalash jarayoni. Tuzilgan modelni ahamiyatini 4 ta yo‘nalish bo‘yicha tekshiradi. Ya‘ni:

1. Modelning sifati determinatsiya koeffitsienti yordamida baholanadi:

$$D = R^2 \cdot 100\% \quad 0 < D < 1$$


- Modelning ahamiyati Fisher mezoni yordamida baholanadi.
- Modelning parametrlari ishonchligini Styudent mezoni bo‘yicha baholanadi.
- Darbin – Uotson mezoni yordamida “Eng kichik kvadratlar usuli”ning ahamiyati tekshiriladi.

Oxirgi bosqichda tuzilgan va baholangan ekonometrik model yordamida asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar prognoz davriga hisoblanadi. Yuqorida keltirib o‘tilgan ekonometrik modellashtirish uchun sanab o‘tilgan qadamlarning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va biri ikkinchisini to‘ldiradi hamda yagona maqsadni amalga oshirish uchun foydalaniladi. Shuni ham ta’kidlashimiz joizki, masalani elektron hisoblash mashinalari orqali hal etish uchun standart dasturdan foydalanamiz. Biz tadqiqotimizda Stata14 amaliy paketi yordamida yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirishda foydalanib natijalarni olamiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni bashorat qilish vazifasi juda dolzarb bo‘lib, fundamental iqtisodiy qarorlarni ishlab chiqish uchun asosdir. Bashorat qilishning maqsadlari har xil bo‘lishi mumkin: inqirozlarni bashorat qilish, talabni bashorat qilish, biznes samaradorligi, barqarorlikni saqlash va boshqalar. Rivojlanish tendentsiyalari barqaror bo‘lgan tizimlarda ekonometrik prognozlash tizimi prognoz ma‘lumotlarini asoslashning etarlicha samarali vositasi bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy jarayonlar vaqt o‘tishi bilan rivojlanib boradi, shuning uchun ekonometrik tadqiqotlarda vaqt qatorlarini, shu jumladan ko‘p o‘lchovli qatorlarni tahlil qilish va bashorat qilish muhim o‘rin tutadi. Dinamik qator kuzatuvlar ketma-ketligi deb ataladi, odatda o‘z vaqtida buyurtma qilinadi, ammo buyurtma boshqa parametr bilan ham ifodalaniq qolishi mumkin.



1-rasm. O`zbekiston Respublikasining eksport hajmi¹⁴

Vaqt qatorlari ko`rinishidagi ma'lumotlarni tashkil etish inson faoliyatining turli sohalarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun foydalidir. Bular iqtisodiyotdagi valyuta kurslari va zaxiralari, uskunalarning kunlik ishdan chiqish soni to`g`risidagi ma'lumotlar va boshqalar bo`lishi mumkin. Turli xil mavzularni o`rganishda olingan vaqt qatorlari boshqacha ko`rinishga ega bo`lishi mumkin, shuning uchun ularni qayta ishlashning yangi usullari ishlab chiqilgan va doimiy ravishda rivojlanib boradi.

Eksportni rag`batlantirish, xususan mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorga olib chiqishni har tomonlama soddalashtirish hamda moliyaviy qo`llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida 2021 yil yakuni bilan umumiy eksport hajmi **110,3 foizga** o`sdi. Shu nuqtai nazardan biz ushbu tadqiqotda O`zbekiston Respublikasining eksport salohiyatiga bir nechta iqtisodiy tarmoq ko`rsatkichlari orasidagi korrelyatsion-regression tahlil orqali orasidagi bog`liqliklarni ko`rib o`tamiz. Bunda y-o`zgaruvchi eksport salohiyati tadqiqotimizda endogen omil va ekzogen omillar sifatida biz x1- o`zgaruvchi qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, x2- o`zgaruvchi sanoat (qurilishni qo`shgan holda), x3- o`zgaruvchi sifatida xizmatlar tarmog`i, x4- import, x5- qurilish hamda x6- ishsizlik darajasining o`sish sur`atlari olindi. Tadqiqot davomida O`zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo`mitasi web saytining 2000-2021yillar oralig`idagi ma`lumotlaridan foydalandik.

Spetsifikatsiyalash jarayoni orqali eksport salohiyatini boshqa tarmoqlar bilan bog`liqlik ko`rsatkichini hisoblandi. Bu esa quyidagicha:

¹⁴ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>


```
. corr y x1 x2 x3 x4 x5 x6
(obs=22)
```

	y	x1	x2	x3	x4	x5	x6
y	1.0000						
x1	0.1678	1.0000					
x2	0.2132	-0.0209	1.0000				
x3	0.5421	0.2664	0.4167	1.0000			
x4	0.7874	-0.1338	0.4370	0.5863	1.0000		
x5	-0.0341	0.0366	0.7180	0.1129	-0.0044	1.0000	
x6	-0.3083	-0.4482	0.0223	-0.2245	-0.0322	-0.1032	1.0000

1-rasm. Korrelyatsion tahlil natijasi¹⁵

Korrelyatsion tahlil natijasiga asosan y-o'zgaruvchi asosiy omilga x3 va x4-o'zgaruvchilar orasida ijobiy bog'lanish bor. Shundan kelib chiqib, biz keying bosqichga o'tishda ya'ni model tuzishda biz x3 va x4 ta'sir etuvchi omillar orqali ko'p omilli regression tahlil o'tkazamiz. Shuningdek, bu bosqichni amalga oshirish uchun Stata14 amaliy paketi orqali amalga oshiramiz va bu quyidagi natijaga erishdik.

```
reg y x3 x4
```

Source	SS	df	MS	Number of obs = 22		
Model	2793.06956	2	1396.53478	F(2, 19) =	16.17	
Residual	1641.18833	19	86.3783331	Prob > F =	0.0001	
Total	4434.25789	21	211.155138	R-squared =	0.6299	
				Adj R-squared =	0.5909	
				Root MSE =	9.294	

y	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
x3	.642633	.9029888	0.71	0.485	-1.247344	2.53261
x4	.6047922	.1456199	4.15	0.001	.3000062	.9095783
_cons	-27.41913	88.10068	-0.31	0.759	-211.816	156.9777

2-rasm. Tadqiqotning regression tahlil natijasi¹⁶

O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyati bevosita import va xizmatlar tarmog'i bilan bog'liqligi ifodalanildi. Shu asnoda chiziqli regression modelni hosil qilamiz. Bunda bizda quyidagicha ko'rinishda liner-regression model hosil bo'ladi:

$$y = -27.41913 + 0.642633 \cdot x3 + 0.6047922 \cdot x4 + \varepsilon$$

yoki

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob kitobi.

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

$$Export = -27.41913 + 0.642633 \cdot Xizmatlar + 0.6047922 \cdot Import + \varepsilon$$

Bevosita modelga etib beradigan bo'lsak, xizmatlar va importning o'sish sur'atlari nolga tenglash natijada eksport salohiyati 27 foiz o'sish sur'ati ehtimolik asosida kamayishi ifodalanilmoqda. Agarda import 1 foizga o'sganda va boshqa omillar barchasi nolga tenglashganda bevosita empirik tarzda eksportning o'sish sur'ati 0,6 foizga o'sishi mumkin. Shuningdek, xizmatlar sohasi 1 foizga o'sishi amalga oshirilsa va o'sha daqiqada boshqa ta'sir etuvchi omillar nolga tenglashsa, unda eksportning o'sish sur'ati ehtimollik asosida 0,64 foizga o'sishi ilmiy asosini topmoqda. Yuqorida keltirilgan fikirlar va modelning ishonchligi va ahamiyatligini tekshirish uchun keyingi bosqichda ko'rib o'tamiz.

Uchinchi bosqichimiz verifikatsiyalash jarayoni edi. Bunda bir necha testlar orqali tuzilgan model tekshiriladi. 2-rasmda e'tibor qaratadigan bo'lsak, determinatsiya koeffitsienti $D=0,62$ ga teng. Bu o'z navbatida modelning sifati 62 foizni anglatmoqda. Shuningdek, Fisher mezoni qiymati $F=16,17$ ga va bu p-value qiymati jihatdan ahamiyatli ekanligi ifodalanilgan(2-rasm) shunga asosan model ahamiyatligi tasdig'ini topgan. Biroq regression tahlil natijasiga asosan model parametri x_3 -o'zgaruvchining t-styudent qiymati ($t=4,15$) p-value qiymati jihatdan ahamiyatsiz. Shuni inobatga olib, modeldagi x_3 o'zgaruvchini chatlashtirib chiziqli regression model qayta tuzamiz.

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	22
Model	2748.6516	1	2748.6516	F(1, 20)	=	32.61
Residual	1685.71203	20	84.2856017	Prob > F	=	0.0000
Total	4434.36364	21	211.160173	R-squared	=	0.6199
				Adj R-squared	=	0.6008
				Root MSE	=	9.1807

eksport	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
import	.665556	.1165471	5.71	0.000	.422443	.9086689
_cons	34.55997	13.11696	2.63	0.016	7.198465	61.92147

3-rasm. Regression tahlil natijasi¹⁷

Natijada quyidagi ko'rinishda regression model hosil bo'ldi:

$$Eksport = 34,55997 + 0.665556 \cdot import$$

Mazkur modelni tahlil qiladigan bo'lsak, import hajmining 1 foizga o'sishi eksport hajmini 0.6 foizga oshirishini ifodalaydi. Shuningdek, determinatsiya koeffitsienti 0,62 ga teng

¹⁷ Muallif statistika qo'mitasi saytidan olgan ma'lumotlari asosidagi hisob kitobi.

bo'ldi, bu esa o'z navbatida modelning qiymati reallikga 62 foiz ekanligini ifodalaydi. Modelning hisoblangan parametrlari t-styudent qiymatiga asosan ishonchliligini ifodaladi hamda F-fisher qiymati 32,61 ga tenglashib, tuzilgan model adekvatligini ilmiy ifodalamoqda.

Ekonometrik tahlilning so'ngi bosqichida, tadqiqot jarayonida tanlab olingan modelning ta'sir etuvchi omillarining prognoz qiymatlari topib olamiz. So'ngra asosiy modeldan foydalanib, O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini keyingi davrdagi prognoz qiymatini olamiz. Bunda biz AR(n) modeliga to'xtalib o'tamiz. AR(n) modelida bevosita lag o'zgaruvchilardan foydalanib, regression tahlil o'tkazamiz.

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	18
Model	1862.17631	4	465.544078	F(4, 13)	=	1.83
Residual	3300.1856	13	253.860431	Prob > F	=	0.1825
				R-squared	=	0.3607
				Adj R-squared	=	0.1640
Total	5162.36191	17	303.668348	Root MSE	=	15.933

import	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
import						
L1.	.5318089	.2868742	1.85	0.087	-.0879451	1.151563
L2.	-.747577	.2933639	-2.55	0.024	-1.381351	-.1138027
L3.	.4411054	.32798	1.34	0.202	-.2674524	1.149663
L4.	-.2004541	.273832	-0.73	0.477	-.7920322	.391124
_cons	110.8839	52.22565	2.12	0.054	-1.942737	223.7106

4-rasm. Lag o'zgaruvchili regression tahlil natijasi¹⁸

Tadqiqot jarayonida AR(5) modeligacha qilib chiqdik, natijada AR(4) modeldan boshlab, qo'shimcha qilingan lagli regression model ijobiy qiymatlarga erishilmadi. Shuning uchun biz AR(4) modeliga to'xtaldik va shu model orqali import hajmini keying davrdagi prognoz qiymatini oldik. AR(4) model quyidagi shakilda ifodalanildi va foydalanildi.

$$import = 110,88 + 0,53 * L1. -0,74 * L2. +0,44 * L3. -0,2 * L4.$$

Lag o'zgaruvchili regression tahlil natijasiga asosan, faqatgina L2. o'zgaruvchining t-styudent qiymati p-value ga nisbatan ahamiyatli bo'ldi. Shuning uchun modelimizdagi faqatgina lag2 ning qiymatidan foydalanamiz va prognoz qiymatini olamiz. Biroq model adekvat emas hamda qiymatlar reallikdan yiroqroq, shuning uchun modelning faqatgina koeffitsientlaridan

¹⁸ Muallif ishlanmasi

foydalanib, prognoz qiymatiga erishamiz. Natijada import keyingi davrda 110,9088 foiz qiymatga empirik holda erishini topib oldik. Shundan foydalanib eksport qiymatini topamiz. O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini 108,37598 foizga tenglashishi ilmiy asosladik. Bu shuni dalolat beradiki keyingi davrda eksport salohiyati kamayishi mumkin va buni oldini olish uchun import hajmini oshirishimiz kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda iqtisodiy ko'rsatkichlarning ahamiyati haqida so'z borganda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, xar bir davlat iqtisodiyotida eksport muhim o'ringa ega va rivojlanishida katta ro'l o'ynaydi. Shu bilan birga eksport sohasida bundan avval ham turli davlatlarning tadqiqotchi, izlanuvchilari ham o'z xulosalarini berib o'tkan. Bu borada A.F. Yakupov, Ch.I. Khazeeva, D.D. Kurmakaeva, A.R. Galievalarning fikriga to'xtaladigan bo'lsak eksport qiluvchi hamda import qiluvchi mamlakatlar o'rtasidagi masofa ham eksport samarasida katta ahamiyat kasb etishi haqida ta'kidlashgan. Darhaqiqat bularning fikriga qo'shilgan holda shunday deyishimiz mumkinki eksport sohasida masofa ham muhimro'l o'ynaydi. Chunki bu o'z o'rnida maxsulot sifatiga, narxiga, ortiqcha vaqt sarf bo'lishiga olib keladi.

Yuqoridagi 1-rasmda keltirib o'tilgan 2000-2021 yillar oralig'idagi eksport hajmida eng yuqori ko'rsatkich 2007-yilda aks etkanini ko'rishimiz mumkin. Va nullEksportni rag'batlantirish, xususan mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorga olib chiqishni har tomonlama soddalashtirish hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida 2021 yil yakuni bilan umumiy eksport hajmi 110,3 foizga o'sganini ham ko'rishimiz mumkin.

Eksportga ta'sir etuvchi bir nechta iqtisodiy tarmoqlarni xi o'zgaruvchilar sifatida ko'rib chiqdik va bunda ijobiy tasir etuvchi (xizmatlar va import) omillar bilan regression tahlil o'tkazdik. Shuni ham ta'kidlash joizki, yuqoridagi liner-regression modelga tayangan xolda boshqa omillar 0 ga deb qaralganda import sohasining 1% ga o'sishi eksport sohasining 0.6% ga o'sishini yoki xizmatlar sohasining 1%ga o'sishi eksport sohasining 0.64% ga o'sadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Hamda ushbu modelning ahamiyatligini turli xil testlar yordamida tekshirdik va ahamiyatli model ekanligiga ishonch xosil qildik. Bundan xulosa shuki, eksport sohasi rivoji uchun o'z o'rnida import hamda xizmatlar sohasini ham rivojlantirish darkor.

Eksport sohasining rivojlanishida yana o'rganilishi kerak bo'lgan sohalar sifatida transport sohasi, zamonaviy texnologiyalar va xorijiy investitsiyalar ekanligini ta'kidlashimiz mumkin va bularni endilikda ko'rib chiqishimiz lozim. Tadqiqot olib borilish davomida biz uchun qiyinchilik tug'dirgan asosiy omillar ma'lumotlarning kamligi hamda so'ngi yildagi ma'lumotlarning statistikalari keltirilmaganligi bo'ldi. Shu bilan birgalikda ma'lumotlarning

aksariyati olishdagi moliyaviy to'rsiqlarning mavjudligi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.A.Yusupov/Xalqaro biznes O'quv qo'llanma-T/'ilm-fan va innovatsiya",2022
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2022 yildagi PF-228-son.
3. A.F. Yakupov, Ch.I. Khazeeva, D.D. Kurmakaeva, A.R. Galieva/ Transformation of the domestic trade between russia and turkey in the 21st century: dynamics, directions of the commodity turnover/ Глобальная экономика и образование. – 2022. – Т. 2. – № 3. – С. 73–79/ Economic Sciences
4. Иван Алексеевич Минаков/Экспорт как фактор развития зернового хозяйства/ Том 5 № 3 (2022)/ Экономические науки
5. Gh. Ghasemi, H. Rafiee , E. Mehrparvar Hosseini. Iran's Export Competitiveness in the Supply Chain of Tomato Paste in the Target Markets./ Available Online:19-03-2022 /Journal of Agricultural Economics & Development 35(4):397-406/ DOI: 10.22067/JEAD.2021.71505.1065
6. Saodat A. Yuldasheva. Analysis Of The State Of The Market For Export-Oriented Products Transported By Rail In The Republic Of Uzbekistan./ Vol. 6 No. 7 (2022) / Journal of Positive School Psychology
7. Ochilova Sadoqat Odil qizi, Rashidov Firdavs Ro'ziboy o'g'li. Bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlarga meva va sabzavot eksport qilishda, bojxona ittifoqi (eaes) ning huquqiy va me'yoriy talablarini aniqlash/ Vol. 1 No. 5 (2022): Educational Research in Universal Sciences (ERUS)
8. Nishonova Ikboloy Ibroximovna. Korxonalarda eksport-import operatsiyalarini hisobini takomillashtirish masallalari/Vol. 1 No. 2 (2022): SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI
9. [Fakhri J. Hasanov](#), [Muhammad Javid](#), [Frederick L. Joutz](#)/Saudi Non-Oil Exports before and after COVID-19: Historical Impacts of Determinants and Scenario Analysis/*Sustainability* 2022, 14(4), 2379
10. [Richardson K. Edeme](#), [Chigozie Nelson Nkalu](#), [Chinenye E. Iloka](#)/Potential impacts of free trade areas and common currency on sustainable agricultural export in Africa/*Journal of Public Affairs*/First published: 29 August 2020/<https://doi.org/10.1002/pa.2392>
11. Khojalepesov Polat Zinatdinovich, Sarsenbaev Ilhambay Eliwbay Ulı, & Madetova Nilufar Maxkamjan Qizi. (2023). ACHIEVED RESULTS OF BUSINESSES IN UZBEKISTAN IN EXPORTING THEIR PRODUCTS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(01), 33–37. <https://doi.org/10.55640/eijmrms-03-01-05>
12. Sabirov, H. N., Abduvaliyeva, Z., & Kh, T. (2022). ECONOMETRIC MODELING OF BUSINESS PROCESSES BASED ON TIME SERIES DATA. *Экономика и социум*, (7 (98)), 102-110.

O'zbekistonning eksport salohiyati va iqtisodiy ko'rsatkichlar

Yillar	Eksport	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	Xizmatlar	Import	Qurilish	Ishsizlik darajasi
2000	100,9	103,1	101,8	105,4	94,8	103,0	0,4
2001	97,1	104,2	102,9	105,1	106,4	103,4	0,4
2002	94,3	106,0	103,4	103,3	86,5	103,4	0,4
2003	124,6	107,3	103,2	103,2	109,3	103,7	0,3
2004	130,3	108,9	105,9	107,4	128,7	104,3	0,4
2005	111,5	105,4	105,3	107,6	107,2	110,7	0,3
2006	118,1	106,7	107,9	107,8	116,9	115,0	0,2
2007	140,7	106,1	108,4	112,5	140,7	116,0	5,0
2008	127,8	104,5	106,5	112,3	144,2	105,5	4,9
2009	102,4	105,8	109,9	106,8	97,3	134,2	5,0
2010	110,6	106,3	105,5	109,6	97,2	105,1	5,4
2011	115,3	106,2	105,2	110,0	123,6	107,8	5,0
2012	90,5	107,2	107,6	107,8	113,0	113,7	4,9
2013	105,3	106,6	109,8	106,8	108,8	117,2	4,9
2014	94,6	106,3	107,4	107,4	100,3	117,6	5,1
2015	92,3	106,1	108,3	107,6	88,8	118,8	5,2
2016	96,7	106,3	105,9	105,9	97,8	107,2	5,2
2017	103,8	101,0	105,4	106,0	115,4	106,0	5,8
2018	111,4	100,2	111,5	105,2	138,7	114,3	9,3
2019	124,8	103,3	108,3	106,0	125,0	122,9	9,0
2020	86,5	102,7	102,5	100,7	87,1	109,5	10,5
2021	110,3	103,9	108,4	109,2	120,6	106,8	9,6

2-ilova

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	21
Model	275.012675	1	275.012675	F(1, 19)	=	0.93
Residual	5645.36926	19	297.124698	Prob > F	=	0.3481
				R-squared	=	0.0465
				Adj R-squared	=	-0.0037
Total	5920.38194	20	296.019097	Root MSE	=	17.237

import	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
import L1.	.2120825	.2204437	0.96	0.348	-.2493116 .6734765
_cons	88.5636	24.72244	3.58	0.002	36.81894 140.3083

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	20
Model	1047.28661	2	523.643306	F(2, 17)	=	1.84
Residual	4839.32199	17	284.665999	Prob > F	=	0.1892
				R-squared	=	0.1779
				Adj R-squared	=	0.0812
Total	5886.6086	19	309.821505	Root MSE	=	16.872

import	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
import L1.	.3075334	.2289331	1.34	0.197	-.1754733 .7905401
L2.	-.3948989	.2355063	-1.68	0.112	-.8917736 .1019759
_cons	122.261	31.70614	3.86	0.001	55.36685 189.1551

reg import L.import L2.import L3.import

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	19
Model	1683.16142	3	561.053805	F(3, 15)	=	2.40
Residual	3499.78295	15	233.318863	Prob > F	=	0.1080
Total	5182.94437	18	287.941354	R-squared	=	0.3248
				Adj R-squared	=	0.1897
				Root MSE	=	15.275

import	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
import						
L1.	.4188201	.2336364	1.79	0.093	-.079164	.9168043
L2.	-.6278519	.2488671	-2.52	0.023	-1.1583	-.0974042
L3.	.2673905	.2513594	1.06	0.304	-.2683694	.8031503
_cons	107.9754	39.75058	2.72	0.016	23.24903	192.7017

3-ilova

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	17
Model	1652.17514	5	330.435028	F(5, 11)	=	1.11
Residual	3280.17349	11	298.19759	Prob > F	=	0.4099
Total	4932.34863	16	308.271789	R-squared	=	0.3350
				Adj R-squared	=	0.0327
				Root MSE	=	17.268

import	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
import						
L1.	.5484968	.3254434	1.69	0.120	-.1677993	1.264793
L2.	-.7998875	.3908245	-2.05	0.065	-1.660086	.0603114
L3.	.4730615	.4203529	1.13	0.284	-.4521291	1.398252
L4.	-.2411544	.3797088	-0.64	0.538	-1.076888	.5945791
L5.	.0045491	.3052408	0.01	0.988	-.6672814	.6763797
_cons	115.6175	67.08301	1.72	0.113	-32.03121	263.2662


```
. di _b[_cons]+_b[L1.]+_b[L2.]+_b[L3.]+_b[L4.]
110.9088
```

```
. reg eksport import
```

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	22
Model	2748.6516	1	2748.6516	F(1, 20)	=	32.61
Residual	1685.71203	20	84.2856017	Prob > F	=	0.0000
				R-squared	=	0.6199
				Adj R-squared	=	0.6008
Total	4434.36364	21	211.160173	Root MSE	=	9.1807

eksport	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
import	.665556	.1165471	5.71	0.000	.422443	.9086689
_cons	34.55997	13.11696	2.63	0.016	7.198465	61.92147

```
. di _b[_cons]+_b[import]*110.9088
108.37598
```